



**OLACHIPOR KARRAK (SILYBUM MARIANUM (L.) GAERTN) NING
URUG'INI DALA SHAROITIDA UNISHI.**

Yaxshiboyeva Gulyuz Shuhratovna

Saparova Nilufar Olimovna,

Rahmatullayeva Dinora O'tkir qizi

Xamroyev Azimjon Mansurovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institut talabalari

gulyuzyaxshiboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10628924>

Annotatsiya: Urug'larining dala sharoitidagi unuvchanligi 3-4 sm chuqurlikda ekilganda olachipor karrakda 87-90% ni tashkil etadi. Optimal ekish muddatlari oktyabr (78% unuvchanlik) va mart (90% unuvchanlik) oylari hisoblanadi.

Kalit so'zlar: fizik-kimyoviy, olachipor karrak, urug', introduksiya.

Bugungi kunda dunyoda 500 mingga yaqin yuksak o'simliklar ma'lum bo'lib, ulardan 5% farmakologik faolligi aniqlangan dorivor turlar hisoblanadi. Hozirda mavjud farmakologik periparatlarning 60% dorivor o'simliklardan olinsada, ko'pgina turlarining hom ashyosi materiallari emas. Shunga ko'ra, farmasevtika sanoatini hom ashyo bilan ta'minlash uchun istiqbolli dorivor turlar resurslarini aniklash va ularni yetishtirish yo'llarini ishlab chikish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.


Introduksiya qilinadigan har bir yangi o'simlikni o'stirish uchun uning individual taraqqiyoti (ontogenezini) qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Olachipor karrakning urug'lari kokilli, ellipssimon yoki teskari tuxumsimon, uzunligi 8 mm gacha, eni 2-4 mm, qalinligi 1-3 mm, ozgina yapaloq, tuksiz, yaltiroq, to'q jigarrang yoki qora, uzun-uzun cho'zinchoq qo'ng'irsimon dog'larga ega. Urug'larda gulkosaning qo'shimchalaridan shakllangan uchar kokilchalar ularni shamol yordamida uchishiga yordam beradi [1, 2, 3]. (1-rasm). Olachipor karrakning ontogenezini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, ularni urug'larining unuvchanlik xususiyati yuqori bo'lib, ekish oldidan skarifikatsiya yoki stratifikatsiya qilish shart emas.



1-rasm. Olachipor karrak urug'larining tashqi tuzilishi

Bizning tajribalarimiz ko'rsatishicha, urug'larni mart oyida 3-4 sm chuqurlikda ekilganda unuvchanlik 90% ga teng. Olachipor karrak urug'larini ekish uchun 2 m² maydon tanlandi. O'simlikning urug'larini ekish besh muddatda kuzda - oktyabr va noyabr hamda bahorda - fevral va mart, aprel oylarida o'tkazildi (2-rasm). Urug'larni ekish oldidan sug'orilib, yer etilgandan so'ng o'tkaziladi. Tajriba maydonida o'simliklarga ishlov berilib, tuproq yumshatib chopiq qilindi. Tajriba maydonini begona o'tlardan tozalab, ishlov berildi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, olachipor karrak urug'larining dala sharoitida unuvchanligi ancha yuqori. Qaysi faslda ekilishidan qat'iy nazar, urug'larning unib chiqishi tajriba maydonida ham bir-biridan kam farq qiladi. Oktyabrda ekilgan urug'larning unib chiqishi tajriba maydonida 78% ni tashkil etib, mart oyida ekilgan urug'lardan 15-16% ga kam bo'ladi. Binobarin, olachipor karrak urug'ini mart oyida ekish eng qulay vaqt bo'lib, unib chiqish darajasi tajriba maydonida 90% ni tashkil etdi.



2-rasm. Olachipor karrak urug'larining dala sharoitida unib chiqishiga ekish muddatlarining ta'siri (n=100)

Tajriba maydon haydalma qatlami granulometrik tarkibi, fizik-kimyoviy xususiyati va u erdagi gumus miqdorining ko'pligi bilan farq qiladi, ya'ni urug'lar unib chiqishi uchun qulay sharoit hisoblanadi. Shunga ko'ra, urug'lar unuvchanligi ham yuqori. Aprel oyida ekilgan urug'lar unib chiqish qobiliyatini kam bo'lishining asosiy sababi, havoning tez isib, tuproq haroratining ko'tarilishiga olib kelib, urug'larning tezda qurib qolishi kuzatildi. Maysalarning hayotchanligi o'simlikning o'sayotgan sharoitiga, ularning zichligiga hamda urug'larni ekish me'yoriga bog'liq. Bundan tashqari o'simliklarning hayotchanligi yashash muhitiga qanchalik moslashishiga bog'liq bo'ladi. O'tkazilgan tajriba natijalari ko'rsatishicha, tajriba maydonida gektariga 6 kg urug' ekilganda, unib chiqqan urug'lar 85,2%, hayotchanligi 78,4% ni tashkil etadi. Qolgan variantlarda maysalarning, so'ngra o'simliklarning hayotchanligi ancha kam bo'ldi. Gektariga 8 kg urug' ekilganda tajriba maydonda 81,2% urug'lar unib chiqdi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, gektariga 6 kg urug' ekilganda o'simliklarning saqlanib qolishi tajriba maydonida 78,4% ni tashkil etdi. O'simliklarning hayotchanligini kamayishiga tajriba maydonida yozning yuqori harorati (iyun, iyul) ta'sir etadi.

Olachipor karrak urug'larining unib chiqishiga ekish chuqurligi ham ta'sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Buni o'rganish maqsadida urug'larni 1 sm, 2 sm, 3 sm, 4 sm, 5 sm chuqurliklarga ekildi (1-jadval).

1-jadval



Olachipor karrak urug'larining unib chiqishiga ekish chuqurligining ta'siri (n=100)

Urug'larni ekish chuqurligi (sm)	Unib chiqqan urug'lar soni	
	Dona	%
1	40±4,9	40
2	62±4,9	62
3	87±3,4	87
4	90±3,0	90
5	72±4,5	72

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, olachipor karrak urug'larining unib chiqishi tajriba maydoni uchun 3-4 sm chuqurliklar qulay bo'lib, 87-90% urug'lar unib chiqib qulay sharoit hisoblanadi. Chunki ana shu chuqurlikdagi namlik va harorat miqdori urug'larning unib chiqishi uchun etarli bo'ladi. Undan chuqurroqqa ekilgan sari urug'larning unib chiqishi sekinlasha boshlaydi. Tajriba maydonida ham kuzda (oktyabr) ekilgan urug'lar 8-10 kunda, bahorda (mart) esa 4-8 kundan so'ng unib chiqa boshlaydi. Kuzda ekilgan urug'lardan unib chiqqan maysalar 6-7 ta barglar hosil qilib qishlaydi. Yosh o'simliklar kech kuz va erta bahorgi qisqa muddatli sovuqlarga chidamsiz bo'lib, bir qismi (25-30%) zararlanib nobud bo'ladi. Saqlanib qolgan o'simliklarning uchki kurtagidan erta bahorda yangi barglar hosil bo'ladi va vegetatsiyasini davom ettiradi.

Adabiyotlar:

1. Артюшенко З.Т., Федоров Ал.А. Атлас по описательной морфологии высших растений: Семя. - Л.: Наука. 1990. -204 с.
2. Тютюма Н., Туманян А.Ф. Ранние этапы онтогенеза *Silybum marianum* при интродукции в условиях Астраханской области // Журнал Нижневолжского Агро университетаского комплекса. – Волгоград. Известия. – 2014. – №4. – С. 36.
3. Boboqandov, N. F., Nomozova, Z. B., Gafurova, G. S., & Saydullayeva, I. S. LEONTICE EWERSMANNII BUNGI NING FENOLOGIK XUSUSIYATLARI.
4. Ўзбекистон Республикаси “Қизил китоби”. – Тошкент: Chinor ENK, 1998. – Т.1. -256 б.
5. Boboqandov, N. F., Nomozova, Z. B., & Rasulova, Z. A. LEONTICE EWERSMANNII BUNGE. NING BIOKIMYOVIY TAHLILI.





6. Nasimova, Z. H., Tashpulatov Y. Sh, and I. U. Mukumov. "METHODS FOR INITIAL PROPAGATION OF SPECIES AND VARIETIES OF ORNAMENTAL LILY (LILIUM L.)" Студенческая наука в 2023 году (2023).
7. Musaxon, Y., & Jasur, M. (2023). O 'ZBEKISTONDA YETISHTIRILGAN MIRZOYI QIZIL VA SARIQ SABZI NAVLARINING TARKIBINI O 'RGANISH. Journal of Universal Science Research, 1(11), 686-689.
8. Egamova, G. O., Isomov, E. E., & Djumayeva, G. (2023). EKMA SEDANA O 'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(19), 190-195.
9. Raxmonov, V. N. (2022). AZOLLA (Azolla) VA RYASKA (Lemna) O'SIMLIGIDAN BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, (Conference), 638-640.
10. Bobokandov, N., & Nomozova, Z. (2023). CHANGE IN THE NUMBER OF PLANT BUSHES THROUGH THE GRAZING GRADIENT OF SOUTHERN KYZYLKUM. Science and innovation in the education system, 2(4), 123-129.
11. Yoqubov, M., Mahammadiyev, J., & Eshonqulova, A. (2023). SABZI VA OLMADAN TAYYORLANGAN MAHSULOTLARNING TARKIBINI O 'RGANISH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 872-876.
12. Djumayeva, G. R., & Isomov, E. E. (2023). BUXORO VILOYATIDA O 'STIRILGAN ARTISHOK "VIOLETTA" NAVINING ONTOGENEZI. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(9), 83-87.
13. Sidorov, A., & Mustanov, S. (2023). BIR YILLIK GULLARNI YETISHTIRISHNING TEXNOLOGIYASI. Science and innovation in the education system, 2(12), 220-223.
14. Raxmonov, V., & Xamroyev, A. (2023). O 'TXO 'R BALIQLAR UCHUN RYASKA (LIMNA) O 'SIMLIGIDAN EKOLOGIK TOZA, ARZON VA TO 'YIMLI OZUQA TAYYORLASH. Science and innovation in the education system, 2(12), 167-171.

